

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH  
VOLUME-2, ISSUE-13 (26-December)

DAVLATNING XALQARO MIQYOSDA BARQAROR RIVOJLANISHINI TA'MINLAYDIGAN  
MUHIM OMILLAR

**Murotbekov Xojiakbar**

**Rajabov Shoxruxbek**

**Zulqaynarov Javohir**

*Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti "Xalqaro munosabatlar" fakulteti 1-bosqich talabalar*

**Annotatsiya:** Maqolada davlatning xalqaro maydonda siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligini saqlashda amalga oshirilishi kerak bo'lgan aniq maqsad va vazifalar yoritilgan. Barqaror rivojlanish istiqbollarini belgilash bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish jarayonida yuzaga keladigan muammolar inobatga olinib, ularni bartaraf etishga qaratilgan muqobil yechimlar haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** geostrategik joylashuv, huquqiy ong, integratsiyalashuv, nepotizm tamoyili, partiya nomenklaturasi, monopoliya.

**Abstract:** The article describes the specific goals and tasks that must be implemented in order to maintain the political, social and economic stability of the state in the international arena. Taking into account the problems that arise in the process of organizing systematic work on defining the perspectives of sustainable development, alternative solutions aimed at eliminating them are discussed.

**Key words:** geostrategic location, legal consciousness, integration, principle of nepotism, party nomenclature, monopoly.

Dastavval har qaysi davlatning xalqaro maydonda geostrategik joylashuvi uning rivojlanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi, chunki dengizga chiqish imkoniyati mavjudligi davlatga ulkan imkoniyatlar eshagini ochadi. Jumladan, dengiz transporti juda katta miqdordagi sanoat mahsulotlarini bir joydan ikkinchi joyga olib o'tishdagi arzon transport vositasi sanaladi. Biroq boshqa davlatlar bilan xalqaro hamkorlikni mustahkamlash orqali ma'lum darajada dengizga tutash bo'lmagan davlatlar ham rivojlanish imkoniyatiga ega. Barqaror rivojlanish o'zida keng qamrovli xususiyatlarni mujassamlashtirganligi sababli quyida uning turli sohalardagi bir qator fundamental asoslari yoritilgan.

Xalqaro maydonda barqaror rivojlanish yo'lida davlatlar eng avvalo ta'lif tizimida islohotlar olib borishi lozim. Davlatning barqaror rivojlanishi uchun xizmat qiladigan asosiy omillardan biri bu kuchli va samarali ta'lif tizimidir. Ta'lif tizimidagi kamchiliklar va xatolar o'zidan keyin mamlakatda bir qator, xususan, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda ulkan muammolarni keltirib chiqaradi. Ta'lif tizimida o'qitish sifatining pastligi kadrlar tizimida salbiy oqibatlarni, ya'ni savodsiz, nomutaxassis kadrlar qatlami shakllanishini keltirib chiqarishi bois har qaysi davlatda ta'lifni sifat va samaradorlik jihatidan yuksaltirish zarurligi ko'p bora urg'ulanadi. Janubiy Afrikadagi universitetlardan birining peshtoqiga

bitilgan quyidagi jumlalar gapimizning yorqin ifodasidir: "Biror davlatni yo'q qilish uchun atom bombasi yoki uzoq masofali raketa quollaridan foydalanish shart emas. Faqatgina ta'lif sifatini pasaytirib, imtihonlarda ko'chirmachilikka imkon berish yetarlidir. Ta'lifning barbod bo'lishi – xalqning vayron bo'lishidir!". Bunga qarshi rivojlangan mamlakatlar ta'lif tizimida sinalgan usullardan andoza olish ta'lif tizimini isloh qilishga qaratilgan muqobil yechim bo'la oladi. Masalan, Yaponiya boshlang'ich mакtablarida o'qituvchilar bolalarni atrofda sodir bo'layotgan biron-bir vaziyat xususida tanqidiy fikrlashga o'rgatadilar. Bundan ko'rinish turibdiki, o'qituvchilar faqat ta'lif berish bilan cheklanib qolmay, o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun ham Yaponiyada o'qituvchi kasbiga katta e'tibor qaratiladi. Yaponiya rivojlangan davlatlar ichida o'qituvchining maoshi davlat raxbarlari maoshidan ham yuqori bo'lgan yagona davlatdir. Qachonki Yaponiya mafkurasi ta'lif tizimida shakllantirilsa, mamlakat yoshlari milliy g'oya va vatanparvarlik ruhida tarbiyalanadi hamda huquqiy ongi yuksaladi. Buning natijasida esa istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlod shakllanadi va bunday malakali kadrlar kelajakda davlat boshqaruv sohasida ham samarali faoliyat olib borishadi.

Mamlakat taraqqiyoti va jamiyat farovonligini ta'minlash o'z navbatida davlat boshqaruv tizimini tubdan isloh qilishni taqazo etadi, chunki davlat boshqaruvining samarali faoliyat yurituvchi tizimini yaratmasdan turib jamiyat ravnaqini kafolatlab bo'lmaydi. Shu nuqtayi nazardan, jahondagi ilg'or mamlakatlar tajribasida sinalgan usullarga tayangan holda davlat boshqaruv sohasining samaradorligini oshirish imkoniyati vujudga keladi. Jumadan, davlat boshqaruv tizimida partiya nomenklaturasini cheklamasdan turib mamlakat o'z taraqqiyoti sari bosqichma-bosqich qadam qo'ya olmaydi. Davlat boshqaruvida bir nechta raqobatdosh siyosiy partiyalarning erkin siyosiy faoliyat yuritmasligi jamiyat hayotida aholi farovonlini yomonlashuviga olib keladi. Qachonki davlat boshqaruvida ko'p partiyaviylik tizim shakllantirilsa, jamiyat va davlat o'rtasida integratsiyalashuv jarayoni kuzatiladi. Qolaversa, o'zaro raqobatdosh partiyalarning jamiyat siyosiy-ijtomoiy hayotidagi o'rni va roli oshadi. Bundan tashqari davlat apparatidagi mansabdar shaxslarning nepotizm tamoyiliga asoslanib faoliyat olib borishi, ya'ni yaqin qarindoshlarga imtiyoz berish maqsadida hokimiyatdan foydalanishlari ham mamlakat barqarorligiga putur yetkazuvchi omillardan biri sanaladi. Siyosatda davlat lavozimlariga erishishda shaxslarning ma'lumotiga emas, balki qarindoshchilik darajasiga yon bosilishi ko'plab saloyihatli kadrlarning chet elga jo'nab ketishiga sabab bo'ladi. Mamlakat miqyosida esa malakali kadrlar yetishmasligi dolzarb muammoga aylanadi. Davlat xizmatlarini takomillashtirish jarayonida yaqin qarindoshlarning bir davlat tashkilotida ishlashi bo'yicha cheklovlari joriy etish va uni ijrosini ta'minlash ushbu muammoga muqobil yechim bo'la oladi. Singapur Respublikasining birinchi bosh vaziri, Singapur "iqtisodiy mo'jizasi"<sup>2</sup>ning muallifi Li Kuan Yu<sup>2</sup> yaqinlarini ham ayamagan holda quyidagi jumlalarni ta'kidlab o'tgan: "Oldimda ikkita yo'l bor. Birinchisi o'g'irlash va

<sup>2</sup> Li Kuan Yu – Singapur Respublikasining birinchi Bosh vaziri (1959-1990)

do'stlarim ham qarindoshlarimni "Forbes"<sup>3</sup> reytinglariga kiritish, shu bilan birga xalqimni och-yalang'och holda qoldirish. Ikkinci yo'l: xalqimga xizmat qilish va yurtimni eng yaxshi mamlakalar o'ntaligiga olib kirish. Men ikkinchi yo'lni tanladim". Shu boisdan, yuqorida ta'kidlangan tamoyillarga asoslangan holda zamonaviy boshqaruv mexanizmini tashkil etish orqali mamlakatni barqarorlashtirishga erishish mumkin. Lekin iqtisodiy tizimdagagi kamchiliklar va iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi muammolarni bartaraf etishga asoslangan zamonaviy tizim joriy etilmasa, iqtisodiyotni rivojlantirishga aloqador idoralar faoliyati uyg'unligini ta'minlab bo'lmaydi. Har qaysi sohaning asosi iqtisodiy tizim negizida shakllanadi. Biroq davlat amaldorlarining o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, ya'ni korrupsiyaviy holatlarni sodir etishlari iqtisodiy tizim negiziga bolta uruvchi dahshatli illatlardan biri sanaladi. Zero, hukumat tizimini ishdan chiqaruvchi bu illat iqtisodiy zarardan tashqari jamiyatning turli sohalariga salbiy ta'sir o'tkazadi. Xususan, fuqarolarning davlat organlariga ishonchi yo'qoladi. Daromadlarning tengsizligi, davlat investitsiyalarining qisqarishi kabi oqibatlar yuzaga keladi. Singapur tajribasiga tayangan holda davlat xizmatchilariga nisbatan korrupsiya bo'yicha aybdorlik prezumpsiyasini joriy etish orqali korrupsiyaviy holatlarni keskin qisqartirilishiga erishish mumkin. Bu shuni anglatadiki, davlat xizmatchisi o'zining maoshi yetmaydigan xarajatlarga pul sarflasa, u o'z harakatining qonunga xilof emasligini isbotlamaguncha aybdor hisoblanadi. Agarda uning korrupsiyaga yo'l qo'yanligi aniqlansa qonun doirasida intizomiy jazo qo'llaniladi. Shu bilan bir qatorda barcha davlat amaldorlari va ularning oila a'zolari daxlsizlik huquqidani mahrum etilishi ham ko'zda tutiladi. Qolaversa, mamlakat ta'lim tizimida Finlandiya mafkurasini singdirish orqali ham boylikka intilish, nafsga qul bo'lish kabi hislatlar naqadar yomon illat ekanligini yoshlarning tafakkurida shakllantirish mumkin. Chunki Finlandiyada davlat budgetiga xiyonat qilish xalq keljagiga ulug' xiyonat ekanligi yaqqol ifodasini topgan. Ming afsuski, birgina korrupsiyani bartaraf etish iqtisodiy tizim taraqqiyotini belgilaydigan yagona omil emas. Tovar va moliya bozorlarida raqobat muhitini ta'minlash ham davlat iqtisodiyotiga katta ta'sir o'tkazadi. Tovar bozorlarida monopoliya subyektlarini faoliyat yuritishi bozor iqtisodiyotida mahsulot sifatini pasayishi, narx-navoning esa o'sishiga olib keladi. Xorijiy investorlarni jalb qilish va invistitsiyalar hajmini yildan-yilga ortib borishini ta'minlash orqali esa mahsulot va tovarlar ishlab chiqaruvchi zamonaviy korxonalar sonini ko'payishiga erishiladi. Mamlakatda esa raqobatchilik muhiti shakllanib boradi. Yangi tashkil qilingan korxonalar va fabrikalarda bo'sh ishchi o'rinalarini vujudga kelishi natijasida mehnat bozorida kambag'allar va ishsizlar soni keskin qisqartiriladi hamda mahsulot sifat indeksi ortadi. Hattoki BMTning global muammolarni hal etishga qaratilgan 17 ta barqaror rivojlanish maqsadlarida ham ham qashshoqlikni qisqartirishga va jamiyat hayotini yaxshilashga doir universal choralar qayd etib o'tilgan. Quvonarlisi 2030-yilga qadar amalga oshirilishi mo'ljallangan ushbu 17 ta maqsadlar BMTga a'zo barcha davlatlar tomonidan

<sup>3</sup> Forbes – Dunyoning eng badavlat kishilari ro'yxati

ma'qullangan. Yuqorida qayd etilgan islohotlar iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashda alohida o'rinni tutadi. Natijada, davlat yetarlicha moliyaviy zaxiraga ega bo'ladi va ushbu zaxira hisobidan mamlakatning asosiy tayanchi hisoblanmish harbiy, qolaversa, texnologik sohaga mablag' ajratish imkoniyati vujudga keladi. Mamlakat mudofaa qudratini yuksaltirishda harbiy soha alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, mudofaa vazirligi tizimida harbiy texnika va qurol-yarog'lar ishlab chiqarish hamda ularni boshqa davlatlarga iqtisodiy foyda olish maqsadida yetkazib berishga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Bundan tashqari texnologik sohada davlatning o'z sun'iy yo'ldoshiga ega bo'lishi uchun davlat budgetidan moliya ajratishi uning ilmiy, harbiy va aloqa tizimida ustunlikka ega bo'lishidan dalolat beradi, chunki sun'iy yo'ldosh yordamida razvedka ma'lumotlarini to'plash, kosmik tadqiqodlarni amalga oshirish, keng qamrovli aloqa tarmog'ini tashkil etish mumkin. Ushbu yo'naliishlarda taraqqiyotga erisha olgan davlatlar xalqaro maydonda o'z obro'sini yuksaltira oladi.

Xulosa qilib aytganda barqaror rivojlanish davlat taraqqiyoti maqsadlariga erishishning tashkiliy tamoyilidir, shu sababli ham barqarorlikni ta'minlash davlat tizimidagi yaxlit soha faoliyati bilan bog'liq emas. Barqarorlikni o'lchashning o'ziga xos ko'rsatkichlari iqtisodiy o'sishlar, texnik yangiliklar, siyosiy yoki huquqiy tizimdagi islohotlar bilan baholanadi va ushbu turli sohadagi ko'rsatkichlar bir-birining negizida shakllanadi hamda takomillashadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- <https://lex.uz>
- <https://kun.uz>
- <https://medium.com/@presidentdzitse/how-a-nation-is-collapsed-4e97625c4e07>
- <http://geografiya.uz/bilasizmi/10786-dunyodagi-eng-yaxshi-talim-tizimi-qaysi-mamlakatda-ekanligini-bilasizmi.html>
- [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Yaponiyada\\_ta%CA%BClim](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Yaponiyada_ta%CA%BClim)
- <https://slidetodoc.com/yaponiya-talim-tizimi-va-uning-oziga-xosliklari-yaponiya/>
- <https://el-in.ru/uz/million/prichiny-ekonomicheskogo-chuda-v-yaponii-yaponskoe-ekonomicheskoe.html>
- Larisa Burakova "Gruziya mavaffaqiyatga qanday erishdi"